



ANDIJON VILOYATI IQTISODIYOTIDA RAQOBAT MUHITINI RIVOJLANTIRISH HAMDA INVESTITSIYAGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Toshpulatov
Asronbek
Mutalibovich**

*Andijon davlat universiteti bosh muhandisi, erkin
tadqiqotchi
toshpulatov_as@gmail.com, tel: 93-255-03-30*

Annotatsiya

Maqolada Andijon viloyati iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirish hamda investitsiyaga ta'sir etuvchi omillar tahlili ochib berilgan. Shuningdek 2021-2023 yillardagi ma'lumotlari o'rganilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

raqobat muhiti, rivojlantirish, investitsiyaga ta'sir etuvchi omillar, innovatsion iqlim.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalgan qilishda “ochiq eshiklar” siyosatini olib borilishi O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga kirib borishi, jahon bozorida o'z mavqeiga ega bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning negizida o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy munosabatlarni yo'lgan ko'yilishi va rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda mutnazam ravishda chet el sarmoyalalarini jalgan etish nazarda tutilgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishda xorijiy sarmoyadorlar bilan aloqa o'rnatishga, ularniig ishonchini qozonishga va iqtisodiyotimizga doimiy ravishda xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratilgan [1].

Shahar va tumanlarning YAHMDagi 1 %lik xissasiga to'g'ri keladigan investitssiyalardagi ulushi yuqori bo'lgan xududiy subyektlardan ayrimlari mahsulotning investitsiya sig'imi yuqoriligi (masalalan, Bo'ston tuman 0,63%, Ulug'nor tumani 0,81%, Izboskan tumani 0,85%) ular ishlab chiqarish samaradorligining pastligi bilan izohlansa, boshqalari (Andidon shahrida 2,9%, Shaxrixon tumani 1,81%, Xo'jaobod 1,85%, Xonobod shahrida 1,13%)dagi bu yuqori ko'rsatkich mazkur xududlar iqtisodiyotining industriyalashuv darajasi yuqoriligi, ixtishoshlashuvida sanoat tarmog'ining ustuvor o'rin egallashi natijasi hisoblanadi. YAHMDagi salmog'iga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va band bo'lganlardagi ulushi (tegishli ravishda 10.6%; 9.7%; 9.9%) deyarli to'liq mos kelgan yagona tuman bu Xazorasp tumani hisoblanadi. Tumnlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ularning qayd qilib o'tilgan ko'rsatkichlar bo'yicha keskin farqlanishini yumshatib “xarajat” (kapital va ishchi kuchi) va “natija”

1-sho‘ba. O‘zbekiston iqtisodiyoti va boshqa sohalarida raqamlashtirish jarayonlari.

(YAHM) nisbatini mumkin bo‘lgan darajagacha muvozanatlashtirib borishini taqozo etadi. Shahar va tumanlarning YAHMdagi 1,0 %lik ulushiga to‘g‘ri keladigan band bo‘lganlardagi eng kam xissa Bo‘ston tumani (0,52%), Marxamat tumani (1,0%) va Andijon tumani (1,03%) ga to‘g‘ri kelgan. Boshqa barcha shahar va tuman subyektlarda mazkur ko‘rsatkich 1,0%dan yuqori darajani tashkil qilingan. YAHMning 1 %ga o‘sishiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar o‘sishii ko‘rsatkichi asosida shahar va tumanlarda kapital qo‘yilmalar va umuman iqtisodiy o‘sish samaradorligini qiyosiy baholash mumkin [2].

1-jadval.

Andijon viloyatining YAHM, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va band bo‘lganlar (2022 yilga nisbatan) ulushi % hisobida [4]

| Shahar va tumanlar | YAHMdagi ulushi | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur’ati | Band bo‘lganlardagi ulushi | YAIM 1%lik ulushiga to‘g‘ri keladigan | |
|--------------------|-----------------|--|----------------------------|---------------------------------------|-----------------|
| | | | | Investitsiyalar | Band bo‘lganlar |
| Andijon sh. | 11,3 | 299,4 | 11,1 | 2,9 | 2,15 |
| Xonobod sh. | 9,3 | 90,0 | 9,4 | 1,13 | 1,52 |
| Andijon | 7,5 | 161,9 | 6,5 | 1,0 | 1,03 |
| Asaka | 9,8 | 287,1 | 9,6 | 1,21 | 1,32 |
| Baliqchi | 9,7 | 281,2 | 9,1 | 1,17 | 1,12 |
| Buloqboshi | 9,2 | 127,9 | 6,5 | 1,09 | 1,60 |
| Bo‘ston | 8,2 | 123,6 | 3,3 | 0,63 | 0,52 |
| Jalalquduq | 8,3 | 118,1 | 3,1 | 1,01 | 1,05 |
| Izboskan | 8,5 | 138,7 | 6,9 | 0,85 | 1,66 |
| Qo‘rg‘ontepa | 8,0 | 153,7 | 4,7 | 0,81 | 1,31 |
| Marxamat | 8,5 | 172,4 | 7,9 | 1,04 | 1,0 |
| Oltinko‘l | 7,5 | 195,7 | 5,5 | 1,11 | 1,42 |
| Paxtaobod | 7,5 | 185,2 | 5,6 | 1,07 | 1,21 |
| Ulug‘nor | 7,6 | 102,0 | 10,7 | 0,81 | 1,64 |
| Xo‘jaobod | 6,8 | 206,1 | 3,5 | 1,85 | 1,1 |
| Shaxrixon | 7,6 | 212,9 | 8,4 | 1,81 | 1,3 |

Mazkur ko‘rsatkich 1,13% dan 1,96% gacha bo‘lgan tumanlarda mahsulotning investitsiya sig‘imi nisbatan past, investitsiya qaytimi va kapital qo‘yilmalar bo‘yicha ishlab chiqarish hamda iqtisodiy o‘sish samaradorligi birmuncha yuqori bo‘lgan tumanlar ajratiladi. 2023 yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘pi, ya’ni 58,9 foizi viloyatning 3 ta tumani hissasiga, jumladan Andijon shahri 33,9 foiz, Shaxrixon tumani 14,5 foiz va Xo‘jaobod tumani 10,4 foizi to‘g‘ri kelgan.

Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. Jumladan o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Andijon shahri 299,4 foiz, Shaxrixon tumani 212,9 foiz, Xo‘jaobod tumani 206,1 foiz Oltinko‘l tumani 195,7 va Marxamat tumani 172,4 foiz o‘sish kuzatilgan.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 11,9 foizni tashkil qildi. Shuningdek, 2023 yilda Andijon

viloyatiga jami 355,5 mlrd.so‘mlik xorijiy investitsiyalar, shu jumladan, kreditlar 202,9 mlrd so‘mlik o‘zlashtirildi. Jumladan, Andijon shahri 217,1 mlrd. so‘m, Xonobod shahri 10,6 mlrd. so‘m, Shaxrixon tuman 60,5 mlrd. so‘m, Xo‘jaobod tumaniga 25,5 mlrd so‘mlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Andijon viloyatining Bog‘ot tumaniga 0,9 mlrd so‘mlik eng past xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Shuningdek, viloyatning Izboskan va Bshston tumanlariga xorijiy investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirilmagan. Buning natijasida 2022 yilda viloyat iqtisodiyotida konsentratsiya darajasi buzilgan yoki YAHM ulushi 2022 yilga nisbatan 3,7 foizni o‘tgan yildagi YAHMga nisbatan solishtirilganda 0,1 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin [3].

Andijon viloyatiga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 61,1 foizi Andijon shahriga, 17,0 foizi Shaxrixon tumaniga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, Xo‘jaobod tumani 7,1 foiz, Marxamat tumani 5,6, Xonobod shahri 3,0 foiz, Buloqboshi tumani 2,6 foizni tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, viloyatda xorijiy investorlarning jalb etish darajasi boshqa viloyatlarga nisbatan solishtirilganda past darajadadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shahar va tumanlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

-tadbirkorlarning biznes-ko‘nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyixalari bilan ishslash tajribasi va xuquqiy bilimlarining yetarli emasligi-xududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

-loyixa tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi-investitsiya dasturlari va xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy xolatining maxalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishi;

-investitsiya takliflari va loyixa texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi-tadbirkorlarga investitsiya loyixalarini ishlab chiqarishda tijorat banklari, xududlaprdagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas’ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilishini mahalliy xokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish.

Адабиётлар:

1. Yuldashevich, U. I., & Mukhammadeldor, R. (2021). The impact of digital economy on the development of small business and private entrepreneurship. *Восточно-европейский научный журнал*, (2-3 (66)), 4-7.
2. Умаров, И. Ю., & Бегбутова, М. М. (2017). Роль иностранных инвестиций в устойчивом экономическом развитии страны. In *Статистические методы исследования социально-экономических и экологических систем региона* (pp. 161-166).
3. Umarov, I. Y. (2021). Use Of Innovations And Modern Methods In The Logistics Network. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*.
4. Умаров, И. Ю., Режапов, Х. Х., & Узбекистан, Р. (2015). Международные рейтинги и рейтинговая система Узбекистана. *Редакционная коллегия: ОК Акулова, директор Кировского филиала МФЮА ЕВ Каранина, доктор экономических наук, профессор СН Родыгина, кандидат философских наук, доцент*, 428.

5. Умаров, И. Ю., & Бурибоевой, И. А. (2019). Пути повышения конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 39.
6. Умаров, И. Ю., & Хусанова, З. Р. (2019). ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ-КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. In *Материалы VII Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы социально-трудовых отношений», посвященной* (pp. 367-369).
7. Umarov, I. Y. (2021). Use Of Innovations And Modern Methods In The Logistics Network. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*.
8. Умаров, И. (2022). ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИ БОШҚАРУВИНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИЁТИ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(3), 229-238.
9. Teshaboyev, B. (2024). ZAMONAVIY TO ‘QIMACHILIK TEKNOLOGIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 118-122.